«BAZA TEST». 2012-2018 (1-qism)

1. To‘g‘ri ma’lumotni toping.
A) Kushon davlatining poytaxti Ershi hisoblanadi
B) Kushon davlati milodiy I asrda vujudga kelgan
C) Kushon davlatida shaharsozlik boshlanishi mil.avv.VII asrga borib taqaladi
D) Kushon davlati mil.avv. II asr oxirida qudratli davlat birlashmasiga aylangan

2. XIII asr tarixiga oid Shirvon tarixiy joy nomi hozirgi qaysi hududga to‘g‘ri keladi?
A) Turkmaniston **B) Armaniston** C) Gruziya
D) Ozarbayjon

3. Quyidagilardan Turk xoqonligining bo‘linib ketishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlang.
1) katta-katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqining markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka intilishi;
2) xoqonlikning janubiy hududlari eftallar tomonidan egallab olinishi; 3) hududlardagi hokimliklarning mustaqil bo‘lishga intilishi; 4) Arab xalifaligining hujumi.
A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 **D) 1, 3**

4. Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax shaharlari egallangan yilda Orenburg general-gubernatori lavozimida ishlayotgan shaxsni aniqlang.
A) K. fon Kaufman B) F. Romanovskiy
C) V. Perovskiy **D) N. Krijanovskiy**

5. To‘g‘ri ma’lumotni toping.
A) mil.av. 449-yilda Ahamoniylar davlatining hukmronligi tugagan.
B) Kir II mil.av. 558-yilda barcha forslarni o‘z hokimiyati ostida birlashtirgan.
C) mil.avv. 530-yilda Doro I hukmronligi boshlangan.
D) Kambiz II O‘rta Osiyoni bosib olishga harakat qilgan dastlabki Fors podshosi hisoblanadi.

6. Quyidagi qaysi voqea Eronning janubi-g‘arbiy qismida Elam davlati vujudga kelishidan avval sodir bo‘lgan?
A) Bobil podsholigi tashkil topdi
B) Miken va Krit davlatlari tashkil topdi
C) odamlar Nil daryosi qirg‘oqlarini o‘zlashtira boshladilar
D) Old Osiyo hududida ilk davlatlar vujudga kela boshladi

7. Oltin O‘rda xonligida tashqi siyosat masalalari bilan kimlar shug‘ullangan?
1) xon; 2) ulusbegi; 3) bosqoq; 4) xonning yaqin maslahatchilari; 5) beklarbegi.
A) 2, 4, 5 **B) 1, 4, 5** C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 5

8. Angliya qiroli imzolagan «Buyuk ozodlik xartiyasi»da kimlarga qirol amaldorlarining o‘zboshimchaliklari va qo‘shimcha jarimalardan himoya qilish va’da qilingan edi?
A) qaram dehqonlarga **B) erkin kishilarga**
C) ruhoniylarga D) qullarga

9. XIX asrda bo‘lib o‘tgan afyun urushida ishtirok etgan davlatlarni aniqlang.
1) Afg‘oniston; 2) Fransiya; 3) Xitoy;
4) Angliya; 5) Germaniya.
A) 1, 2, 4 B) 3, 4, 5 C) 2, 3, 5 **D) 2, 3, 4**

10. Rus yerlarini birlashtirish nihoyasiga yetkazilgan davrda Buxoroda taxtni kim boshqarayotgan edi?*
A) Abu Said B) Ubaydullaxon
C) Ko‘chkunchixon D) Abdullaxon II

11. Quyidagi qaysi davlat II Bolqon urushida yengilib, qo‘lga kiritgan hududlarining bir qismini yo‘qotdi?
A) Gretsiya B) Serbiya C) Ruminiya
D) Bolgariya

12. Yaponiyada nechanchi yilda qabul qilingan konstitutsiyaga ko‘ra, imperator qonunlar o‘rniga oliy farmonlar chiqarish huquqini o‘zida saqlab qolgan?
A) 1923-yilda B) 1947-yilda **C) 1889-yilda**
D) 1892-yilda

13. 1914-yilda Xitoy Konstitutsiyaviy Kengashi chaqirildi. Unda…
1) Xitoyning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi;
2) Sun Yatsen mamlakat prezidenti bo‘ldi;
3) Yuan Shikay prezident sifatida cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘ldi; 4) mamlakatda harbiy diktatura o‘rnatildi: 5) respublika boshqaruv organlari tugatildi;
6) yangi konsitutsiya imperator huquqlarini chekladi.
A) 1, 3, 4, 5 B) 4, 5, 6 C) 2, 3, 6 D) 1, 2, 5, 6

14. Quyidagi qaysi davlat Tehron konferensiyasida ishtirok etmagan?
A) AQSH B) Buyuk Britaniya C) SSSR
D) Fransiya

15. Kushonlar davriga oid Fayoztepa yodgorligi qayerda joylashgan?
A) Eski Termizda B) Buxoroda C) Boysunda
D) Samarqandda

16. Zarautsoy darasidagi qoyatosh rasmlari qaysi davrga oid?
A) o‘rta paleolit B) ilk paleolit C) so‘nggi paleolit
B) mezolit

17. Qaysi sosoniy hukmdorlar davrida eftallarga qarshi urush olib borilgan?
A) Bumin, Afrig‘ B) Istami, Pero‘z
C) Xusrav I Anushervon, Bumin
D) Pero‘z, Xusrav I Anushervon

18. Eftallarga qarshi urushi halokat bilan tugagan sosoniy shohni aniqlang.
A) Xisrav I Anushervon B) Afrig‘ C) Istami
D) Pero‘z

19. Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo‘lgan davlat tuzilgan yilda sodir bo‘lgan voqeani toping.
A) Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlar Xiva xonligiga bo‘ysundirildi
B) Jung‘orlar bostirib kelib, Sirdaryoning o‘rta qismini egallagach, qoraqalpoqlar ko‘chishga majbur bo‘ldi
C) Rossiya Abulfayzxonning so‘roviga javoban Buxoroga Florio Benevenini elchi qilib jo‘natdi
D) qozoqlarning Kichik Juz xoni Abulxayrxon Peterburgga o‘z elchilarini jo‘natdi

20. Eron shohi Nodirshoh Xivani bo‘ysundirgan paytda Xiva xonligini kim boshqarayotgan edi?
A) Anushaxon **B) Elbarsxon** C) Asfandiyorxon
D) Sherg‘ozixon

21. Ogahiyning Xiva xonligi tarixiga oid asarlarini belgilang.
1) «Ravzat us-safo»; 2) «Shohidi iqbol»;
3) «Gulshani davlat»; 4) «Dili g‘aroyib»;
5) «Tavorixi manzuma»; 6) «Riyoz ud-davla»;
7) «Zubdat ut-tavorix».
A) 2, 4, 6, 7 B) 1, 4, 5, 6 **C) 2, 3, 6, 7**
D) 1, 3, 5, 6

22. Qadim Misrda kimlar yuksak saviyadagi ma’lumotli va savodxon kishilar hisoblanib, ular katta imtivozlarga va izzat-hurmatga ega bo‘lganlar?
A) folbinlar B) harbiy a’yonlar
C) jamoadagi yuqori martabali kishilar
D) husnixat san’atini egallagan kishilar

23. Afinada har vili saylanadigan Beshyuzlar kengashiga kim rahbarlik qilgan?
A) Konsul B) Imperator C) Senator **D) Strateg**

24. 732-yildagi Puate jangida qavsi davlai qo‘shinlari to‘qnashgan
A) Arab xalifaligi va Vestgot qirolligi
B) Muqaddas Rim imperiyasi va Vizantiya
C) Angliya va Fransiya
D) Arab xalifaligi va Franklar davlati

25. O‘rta asrlarning birinchi davrida Vizantiya poytaxti Konstantinopolda qaysi bilim yurti faoliyat yuritgan?
A) oliy astronomiya bilim yurti
B) oliy savdo-tijorat bilim yurti
C) Oliy tibbiyot bilim yurti
D) yuqori malakali rohibalar tayyorlash bilim yurti

26. XVI-XVII asrlarda Yaponiya hukmdorlari kimlarni bosqinchilarning dastlabki guruhi deb hisoblashgan?
A) xristian dini missionerlarini
B) islom dini missionerlarini
C) samuraylarni D) buddaviylik dini missionerlarini

27. Buyuk Britaniyada Leyboristlar partiyasi kimlar tomonidan tuzilgan?
A) ingliz cherkovi **B) tred-yunionlar**
C) katta yer egalari D) anarxistlar harakati

28. Quyidagilardan Parijda imzolangan shartnomalarni aniqlang.
1) 1898-yil 10-dekabrda imzolangan AQSH-Ispaniya tinchlik shartnomasi; 2) 1878-yilda imzolangan Rossiya-Turkiya o‘rtasidagi tinchlik shartnomasi;
3) 1857-yilda imzolangan Buyuk Britaniya va Eron o‘rtasidagi tinchlik shartnomasi; 4) 1914-yilda imzolangan Buyuk Britaniya va Afg‘oniston o‘rtasidagi tinchlik shartnomasi.
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 2, 4 D) 3, 4

29. Yaponiya va Xitoy o‘rtasida Simonoseki shartnomasi imzolangan yilda Kuba tarixida bo‘lib o‘tgan voqeani aniqlang.
A) Kuba xalqi o‘z milliy qahramoni Xose Marti va Maksimo Gomeslar boshchiligida ispanlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi
B) AQSH Kubaga majburan shartnoma qabul qildirdi
C) Kuba mustaqil deb e’lon qilindi
D) Kubada qulchilik bekor qilindi

30. Quyidagi qaysi daryo qadimda Politimet deb ajalgan?
A) Sirdaryo B) Chirchiq C) Amudaryo
D) Zarafshon

31. Kushon davlatining quyidagi hukmdorlari va ularning faoliyati bilan bog‘liq voqealarni moslang.
1) Vima Kadfiz; 2) Kanishka; 3) Kudzula Kadfiz;
a) Kushon davlatining birinchi hukmdori; b) davlat poytaxtini Peshovarga ko‘chirgan; c) hukmdor nomi bilan tanga pullar zarb ettirgan.
A) 1-a; 2-c; 3-b **B) 1-c; 2-b; 3-a**
C) 1-b; 2-c; 3-a D) 1-c; 2-a; 3-b

32. Nechanchi yilda Qoraxoniylar davlati tugatilgan?
A) 1153-yilda **B) 1141-yilda** C) 1137-yilda
D) 1210-yilda

33. XIV asrning 80-yillarida qaysi davlatlarning o‘zaro yaqinlashuvi Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tug‘dira boshlagan?
1) Turkiya; 2) Hindiston; 3) Misr;
4) Oltin O‘rda; 5) Xitoy.
A) 3, 4, 5 **B) 1, 3, 4** C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4

34. Quyidagi qaysi Qo‘qon xoni dastlab Marg‘ilonda hokim bo‘lgan.*
A) Muhammad Alixon B) Xudoyorxon
C) Umarxon D) Sheralixon

35. Buxoro amirligida Amir Nasrullo tomonidan harbiy islohot o‘tkazilgan yilda Xiva xonligini kim boshqarayotgan edi?
A) Muhammad Aminxon B) Eltuzarxon
C) Rahimqulixon **D) Olloqulixon**

36. Quyidagi qaysi hujjat Rossiya imperatori Nikolay II davrida qabul qilingan?
A) “Turkiston o‘lkasmi idora qilish to‘g‘risida”gi Nizom
B) “Front ortidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan erkaklarning safarbarligi to‘g‘risida”gi farmon

C) “Turkiston viloyatini idora gilish to‘g‘risida”gi Nizom
D) “Toshkentda mahkama joriy etish to‘g‘risida”gi Nizom

37. Quyidagi davlatlar o‘z qudratining cho‘qqisiga erishgan asrlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1) Choson; 2) Parxe; 3) Silla.
a) XV asr o‘rtalari; b) VI asr boshi; c) VII asr;
d) VIII asr o‘rtalari e) IX asr I yarmi.
A) 1-a; 2-b; 3-d **B) 1-a; 2-c; 3-d**
C) 1-c; 2-a; 3-b D) 1-e; 2-b; 3-c

38. Quyidagilardan qaysi biri o‘rta asrlarning birinchi davriga to‘g‘ri keladi?
A) Yaroslav Donishmand hukmronligining boshlanishi
B) Salohiddin Ayubiyning Quddusni salibchilardan tortib olishi
C) Asteklarning Tenochtitlan shahriga asos solinishi
D) G‘arbiy Yevropada dastlabki universitetlarning tashkil topishi

39. Quyida berilgan janglar va ularda qatnashgan hukmdorlar mos ravishda berilgan javobni toping.
1) 1510-yilda Marv yaqinidagi jang; 2) 1526-yilda Panipat jangi; 3) 1395-yilda Tarak daryosi bo‘yidagi jang.
a) Amir Temur va To‘xtamish; b) Zahiriddin Muhammad Bobur va Ibrohim Lodiy; c) Muhammad Shayboniyxon va Ismoil Safaviy.
A) 1-c; 2-a; 3-b **B) 1-c; 2-b; 3-a**
C) 1-a; 2-c; 3-b D) 1-b; 2-c; 3-a

40. Yevropaning buyuk davlatlari o‘rtasida Ispaniya taxti uchun kurash boshlanib ketishiga nima sabab bo‘lgan? (1868-yilgi Ispaniya inqilobidan so‘ng)
A) Fransiya, Rossiya, Buyuk Britaniya ittifoqining tuzilishi
B) Fransiyaning Marokashni o‘z mustamlakasiga aylantirishi
C) Buyuk Britaniyaning Gibraltarni qo‘lga kiritishi
D) Germaniyaning Ispaniya taxtiga o‘z nomzodini qo‘yishga harakat qilgani

41. 1889-yilda Sudan mahdiylar davlati qaysi davlatning birlashgan qo‘shinlari tomonidan mag‘lub etildi?
1) Buyuk Britaniya; 2) Fransiya; 3) Misr;
4) Germaniya; 5) Efiopiya.
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 5 D) 2, 3

42. 1884-yilda (a) va 1903-yilda (b) fan-texnika sohasida amalga oshirilgan ixtirolarni toping.
1) Amerikalik elektrotexnik Tomson tomonidan elektr bilan payvandlash usuli qo‘llanildi; 2) R.Dizel yonilg‘i siqilganda o‘z-o‘zidan alangalanib ketadigan yangi dvigatel yaratdi; 3) aka-uka Uilber va Orvil Raytlar ilk bor samolyotda uchdilar; 4) Vyelye tomonidan piroksilinli tutunsiz porox yaratildi.
A) a-1, b-3 B) a-3, b-1 C) a-4, b-2
D) a-4, b-3

43. XX asr 20-yillarida quyidagi qaysi davlatda hokimiyat tepasida qahva oligarxlari turgan?
A) Argentina **B) Braziliya** C) Meksika
D) Kolumbiya

44. AQSH prezidentligiga R.Reygandan so‘ng saylangan shaxsni belgilang.
A) J.Karter B) J.Makkarti C) J.Kennedi
D) J.Bush (katta)

45. Eng qadimgi tasviriy san’atning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan omilni aniqlang.
A) turar joylar qurilishi
B) Buyuk muzlik davrining boshlanishi
C) odamning o‘zini qurshab turgan tevarak olamni tushunishga intilishi
D) urug‘ jamoalarining paydo bo‘lishi

46. XIV asrning 60-yillarida mo‘g‘ul xoni Ilyosxo‘ja Samarqandga yurish qilishdan avval qaysi shaharlarni egallagan?
1) Xo‘jand; 2) Farg‘ona; 3) Jizzax; 4) Shosh; 5) Saraxs.
A) 1, 3 B) 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 5

47. Mo‘g‘ullar istilosi davrida mudofaachilar qaysi shaharni bir oy davomida bosqinchilardan himoya qilganlar?
A) Xo‘jand B) Urganch C) O‘tror
D) Buxoro

48. Abdurahmon Tole qalamiga mansub asarni aniqlang.
A) «Ubaydullanoma» B) «Muntahab ut-tavorix»
C) «Tarixi Muqimxoniy» **D) «Abulfayzxon tarixi»**

49. Muhammad Amin inoqlik lavozimiga ko‘tarilgan davrda Qo‘qon xonligida taxtni boshqarayotgan hukmdorni aniqlang.
A) Erdonabiy B) Olimbek
C) Abdukarimbiy
D) Norbo‘tabiy

50. To‘g‘ri ma’lumotni toping.
A) Andijon shahri general N.Veryovkin boshchiligidagi qo‘shin tomonidan egallangan
B) Qo‘qon xonligiga qarashli Xojand shahri general M.Skobelev boshchiligidagi qo‘shin tomonidan egallangan
C) Qo‘qon xonligiga qarashli Turkiston shahrini F.Romanovskiy boshchligidagi qo‘shin bosib olgan
D) Toshkent shahrini general M.Chernyayev boshchiligidagi qo‘shin egallagan

51. Quyidagilardan «Yosh xivaliklar» harakati rahbarlarini belgilang.
1) Bekjon Rahmonov; 2) Sadriddin Ayniy;
3) Abdurauf Fitrat; 4) Nazir Sholikorov;
5) Jumaniyoz Sultonmurodov.
A) 1, 3, 5 **B) 1, 4, 5** C) 2, 3, 5
D) 2, 3, 4

52. 1929-yilgacha O‘zbekiston SSR tarkibida bo‘lgan respublikani aniqlang.
A) Qoraqalpog‘iston ASSR B) Turkmaniston ASSR
C) Tojikiston ASSR D) Qirg‘iziston ASSR

53. Puni urushlari boshlangan asrda … .

A) Panjob o‘lkasi Makedoniyalik Aleksandr tomonidan bosib olindi
B) Xitoyda Sin davlati hukmdori yagona davlat tuzdi
C) Afinada demokratiya tizimi qaror topdi
D) O‘rta Osiyoda dastlabki tanga pullar tarqaldi

54. Xan sulolasi davrida Xitoyda mavjud yerlar kimning mulki hisoblangan?
A) qishloq jamoalarining
B) harbiy lashkarboshilarning
C) amaldorlarning **D) hukmdorning**

55. Fransiya va Angliya o‘rtasida yuz bergan yuz yillik urush davrida ikki davlat o‘rtasida bo‘lib o‘tgan quyidagi janglar ketma-ketligi to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
1) Azenkur jangi; 2) Kresi jangi;
3) Puate yaqinidagi jang; 4) Kompen qal’asi uchun jang.
A) 1, 4, 2, 3 **B) 2, 3, 1, 4** C) 1, 4, 3, 2
D) 2, 4, 3, 1

56. Xalqlarning Buyuk ko‘chishi boshlanishiga qadar german qabilalariga mansub franklar asosan qayerda yashaganlar?
A) Dunay daryosining o‘rta va quyi oqimidagi hududda
B) Visla daryosining o‘rta oqimidagi hududda
C) Reyn daryosining quyi oqimidagi hududda
D) Elba daryosining quyi oqimidagi hududda

57. Qaysi savdo kompaniyasi Hindistonda Boburiy hukmdorlarga boj to‘lamay savdo qilish huquqini qo‘lga kiritgan?
A) «Moskva» kompaniyasi
B) «Vest-Indiya» kompaniyasi
C) «Levantiy» kompaniyasi
D) «Ost-Indiya» kompaniyasi

58. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Germaniyaning qaysi davlatga bo‘lgan da’vosi Fransiya bilan munosabatlarining yanada yomonlashuviga sabab bo‘ldi?
A) Kamerunga B) Liviyaga C) Tunisga
D) Marokashga

59. XX asrning boshlarida mamlakatni harbiylashtirishga, urushga tayyorgarlik ko‘rilayotganligiga va milliy zulmga qarshi qaysi davlatda ko‘p ming kishilik namoyish o‘tkazildi?
A) Albaniya B) Turkiya C) Bolgariya
D) Vengriya

60. 1897-yilda (a) va 1903-yilda (b) fan-texnika sohasida amalga oshirilgan ixtirolarni toping.
1) Amerikalik elektrotexnik Tomson tomonidan elektr bilan payvandlash usuli qo‘llanildi; 2) R.Dizel yonilgi siqilganda o‘z-o‘zidan alangalanib ketadigan yangi dvigatel yaratdi; 3) Aka-uka Uilber va Orvill Raytlar ilk bor samolyotda uchdilar; 4) Fransuz olimi Vyelye piroksilinli tutunsiz porox tayyorlashga muvaffaq bo‘ldi
A) a-1; b-3 **B) a-2; b-3** C) a-2; b-4
D) a-1; b-4

61. Davan davlatining poytaxti bo‘lgan shaharni aniqlang.
A) Bityan B) Qiziltepa **C) Ershi**
D) Uzunqir

62. Mil.avv. III asrda saklar asos solgan davlatning poytaxtini aniqlang.
A) Qang‘dez B) Qiziltepa C) Ershi
D) Choch

63. Quyida berilganlardan qaysilari qoraxoniylar davlati asoschisi Abdulkarim Sotuk Bug‘roxon yashagan yillarga to‘g‘ri keladi?
1) Knyaz Vatslavning hukmronlik davri; 2) Bolgar davlati asoschisi Asparux yashagan yillar; 3) Gerbertning Silvestr III nomi bilan papalik davri; 4) Buyuk Alfredning hukmronlik davri.
A) 2, 4 B) 2, 3 **C) 1, 4** D) 1, 3

64. XIII asrda Shimoliy Hindistonda Jaloliddin Manguberdiga xiyonat qilib dushman tomonga o‘tgan lashkarboshilarni aniqlang.
1) Yazidak pahlavon; 2) Eltutmish; 3) Sunqurjiq;
4) Shatra; 5) G‘iyosiddin.
A) 2, 4 B) 1, 2 C) 3, 5 **D) 1, 3**

65. Buxoro xoni Imomqulixon tomonidan qabul qilingan rus elchisini aniqlang.
A) A.Jenkinson **B) I.Xoxlov** C) F.Beneveni
D) N.Ignatyev

66. Qaysi rus imperatori davrida Xiva xonligi bosib olingan?
A) Nikolay II **B) Aleksandr II** C) Aleksandr III
D) Nikolay I

67. O‘rta Osiyo xonliklariga Angliya hukumati tomonidan yuborilgan shaxslarni tashrif buyurgan yillari bilan mos ravishda berilgan javobni toping.
1) I.Volf; 2) J.Abbot; 3) A.Byorns.
a) 1843-yil; b) 1844-yil; c) 1832-yil.
A) 1-a, 2-b, 3-c B) 1-c, 2-a, 3-b
C) 1-b, 2-a, 3-c D) 1-b, 2-c, 3-a

68. Qadimgi Afinada Solon islohotlaridan so‘ng kimlar qonunlar muhokamasi va ovoz berishda ishtirok etmagan?
A) mayda yer egalari, shahar kambag‘allari
B) ajnabiylar (meteklar) va goplitlar
C) jangchilar va shahar kambag‘allari
D) ayollar va ajnabiylar (meteklar)

69. Quyidagi yillarda bo‘lib o‘tgan voqealarni belgilang.
1) mil.avv. 509-yil; 2) 395-yil; 3) mil.avv.29-yil;
4) 476-yil.
a) G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi; b) Oktavianning Rim imperatori deb e’lon qilinishi; c) Rimning ikkiga bo‘lib ketishi; d) Rim Respublika deb e’lon qilinishi.
A) 1-b; 2-d; 3-c; 4-a B) 1-c; 2-d; 3-a; 4-b
C) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a D) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c

70. Innokentiy III nechanchi salib yurishining tashkilotchisi hisoblanadi?
A) birinchi B) ikkinchi **C) to‘rtinchi**
D) beshinchi

71. "Ziroatchilik qonunlari" qachon va qaysi mamlakatda yaratilganligini aniqlang.
A) Vizantiyada, VIII asrda B) Somoniylarda, X asrda
C) Vizantiyada, VI asrda D) Tohiriylarda, IX asrda

72. Xivada Habash Sulton bilan Elbars Sulton ayrim qabilalarning boshliqlariga tayanib otalariga qarshi isyon ko'targan davrda Eron hukmdori kim edi?
A) Taxmasp II **B) Abbos I** C) Nodirshoh
D) Sulton Husayn

73. XVIII asrda Buyuk Britaniya tarixida bo'lib o'tgan voqealarni xronologik tartibda joylashtiring.*
1) ispan taxti uchun boshlangan urush Buyuk Britaniya foydasiga tugadi; 2) "Taxt vorisligi to'g'risida bill" qonuni qabul qilindi; 3) mamlakat Buyuk Britaniya deb atala boshlandi.
A) 2, 3, 1 B) 3, 2, 1 **C) 3, 1, 2**
D) 1, 2, 3

74. Angliya qaysi sulola davrida Buyuk Britaniya nomi bilan atala boshlangan?*
A) gannoverlar B) styuartlar **C) oranyelar**
D) tyudorlar

75. Germaniya va Avstriya-Vengriya 1915-yilda Rossiyaga qarshi urush harakatlarini boshlagan Galitsiya qaysi hududda joylashgan?
A) Sharqiy Polshada B) Janubiy Belorussiyada
C) Moldaviyada **D) G'arbiy Ukrainada**

76. Lotin Amerikasining qaysi davlatida 1910-1917-yillardagi dehqonlar harakati inqilobga aylanib ketgan?
A) Argentinada B) Braziliyada **C) Meksikada**
D) Kubada

77. Quyidagilardan XX asr boshlaridagi ilmiy yangiliklarni aniqlang.
1) elektronning kashf etilishi; 2) ichterlama kasalligi qo'zg'atuvchisining aniqlanishi; 3) plastmassa olish yo'lining topilishi; 4) qanotning ko'tarish kuchini aniqlash formulasining topilishi; 5) piroksilinli tutunsiz poroxning tayyorlanishi.
A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 4 **C) 1, 3, 4** D) 1. 2, 5

78. Amir Haydar davrida qaysi hududlar aholisi qo'zg'olon ko'targan?
1) Marv; 2) Hirot; 3) Miyonqo'1; 4) Ko'lob; 5) Balx.
A) 4, 5 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 3, 4 **D) 1, 3**

79. Insonlar tomonidan munchoqlar, tumorlar va uzuklar yasala boshlangan (a) va hayvonlar qo'lga o'rgatilgan (b) davrlarni belgilang.
1) ilk paleolit; 2) o'rta paleolit; 3) so'nggi paleolit; 4) mezolit; 5) neolit.
A) a-1, b-4 **B) a-3, b-4** C) a-2, b-4
D) a-3, b-5

80. VII asrda Arab xalifaligining Maymurg' va Chag'oniyonga hujumlari qaysi xalifalar davrida amalga oshirilgan?
A) Ali va Mansur **B) Usmon va Muoviya I**
C) Usmon va Ali
D) Muoviya I va Umar ibn Abdulaziz

81. Xiva xonligida xonlik poytaxti kimning hukmronligi davrida Xivaga ko'chirilgan?
A) Asfandiyorxon B) Anushaxon
C) Arab Muhammadxon D) Elbarsxon

82. XIX asrda qaysi voqeadan song Rossiya va Eron o'rtasidagi chegaralar belgilangan?
A) Sirdaryo viloyati tuzilgach
B) turkmanlarning asosiy qal'asi – Go'ktepa bo'ysundirilgandan kevin
C) Qo'qon xonligi tugatilgach
D) Sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi qo'zg'olon bostirilgach

83. Quyidagilardan O'rta Osiyo Rossiya impeiyasi tomonidan bosib olinishining ikkinchi bosqichida bo'lib o'tgan voqealarni belgilang.
1) Raim qal'asi bunyod etildi; 2) M.Chernyayev qo'shinlari Avliyootani bosib oldi; 3) F.Romanovskiy boshchiligidagi harbiy qo'shinlar tomonidan O'ratepa shahri egallandi; 4) Rossiya imperiyasi qo'shinlari bilan Buxoro amirligi qo'shinlari o'rtasida Erjar yaqinida jang bo'lib o'tdi; 5) Rossiya va Buxoro amirligi qo'shinlari o'rtasida Cho'ponota tepaligida jang bo'lib o'tdi;
6) Rossiya imperatori Aleksandr II ning hukmronligi nihoyasiga yetdi.
A) 3, 4, 5 B) 1, 2, 6 C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 4

84. Milliy-hududiy chegaralanish jarayonida qirg'izlar yashaydigan hududlar Qoraqirg'iz muxtor viloyatiga birlashtirilib, qaysi davlat tarkibiga kiritilgan?
A) Tojikiston ASSR B) O'zbekiston SSR
C) Qozog'iston ASSR **D) RSFSR**

85. Rossiyadagi fevral inqilobidan so'ng Turkiston o'lkasida ro'y bergan muhim o'zgarishlarni aniqlang.**
1) Turkiston general-gubernatorligi tugatildi;
2) Turkistonda ikki hokimiyatchilik yuzaga keldi;
3) Muvaqqat hukumatga bo'ysinuvchi Turkiston qo'mitasi tashkil etildi;
4) viloyatlardagi harbiy gubernatorlik tugatildi;
5) Turkiston xalqiga muxtoriyat qurish uchun ruxsat berildi;
6) viloyat komissarliklari tuzildi.
A) 2, 3, 5, 6 B) 1, 2, 3, 5 C) 2, 4, 5, 6
D) 1, 3, 4, 6

86. Qaysi davrga kelib Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligida mashinalar va kimyoviy o'g'itlardan foydalanish boshlandi?
A) XX asr **B) XIX asr** C) XVIII asr
D) XVII asr

87. Fransiya va Rossiya o'rtasida urush boshlangan yili sodir bo'lgan voqeani toping. (XIX asr boshi)
A) Xivaga Qo'qon xonligidan elchilar keldi
B) Xivaga Eron va qozoqlarning O'rta juz xonligidan elchilar keldi

C) Muhammad Rahimxon I Orolboʻyi zodagonlari qarshiligini sindirdi
D) Xivada Qoʻngʻirotlar sulolasi rasman taxtga keldi

88. Rossiya-Ruminiya shartnomasi imzolangan yilda boʻlib oʻtgan voqeani toping. (I jahon urushi davrida)
A) Marna daryosi boʻyida Fransiya va Buyuk Britaniya birlashgan qoʻshini Germaniyaga qarshi bujumga oʻtdi
B) Sovet Rossiyasi «Toʻrtlar Ittifoqi» bilan Brest tinchlik shartnomasini imzoladi
C) Germaniya Buyuk Britaniyaga qarshi cheklanmagan suvosti urushi eʼlon qildi
D) Antanta bilan Italiya oʻrtasida shartnoma imzolandi

89. Xorazmshoh Alovuddin Muhammadga qarshi Oʻtror va Samarqand aholisi qoʻzgʻolon koʻtargan yillar oraligʻida boʻlib oʻtgan voqeani toping.
A) Xorazmshoh Chingizxon huzuriga Bahouddin Roziy boshchiligidagi elchilarini yubordi.
B) Onon daryosi boʻyida chaqirilgan moʻgʻul qurultoyida Temuchin ulugʻ xon deb eʼlon qilindi.
C) Sulton Muhammad Buxoro shahrida Mahmud Yalavoch boshliq Chingizxon elchilarini qabul qildi.
D) Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmishning hukmronligi boshlandi.

90. XIV asrning 40-yillaridan boshlab Chigʻatoy ulusining qaysi qismi Moʻgʻuliston deb atalgan?
1) Sharqiy Turkiston; 2) Movaraunnahr; 3) Yettisuv; 4) Qashqadaryo vohasi; 5) Shimoliy Eron.
A) 1, 3 B) 3, 5 C) 4, 5 D) 1,4

91. Kichik Juz tarkibidagi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilingan davrda Xiva xonligida hukmronlik qilgan shaxsni aniqlang.
A) Elbarsxon B) Muhammad Amin inoq
C) Shergʻozixon D) Anushaxon

92. Rossiya hukumati F.Benevenini Buxoroga elchi qilib yuborganda unga yana qanday vazifalar yuklatilgan edi?
1) Sharq mamlakatlariga olib boradigan suv va quruqlik yoʻllarini oʻrganish, rus savdosini kengaytirish; 2) Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga koʻndirish; 3) Orol dengizida Rossiya bayrogʻini koʻtarish; 4) Buxoro va undan Hindistonga boradigan yoʻlni ochish.
A) 2, 3 **B) 1, 2** C) 1, 4 D) 3, 4

93. Buxoro xonligida muhtasib (rais)lar mamlakatda jamoat tartibining saqlanishi, diniy marosim va amallarga rioya etilishi bilan birga yana qanday vazifani bajarganlar?
A) narx-navo va tarozilaming toʻgʻriligini nazorat qilish
B) chet ellik savdogarlardan olinadigan soliqlar tushumini nazorat qilish
C) elchilarni qabul qilish marosimlarini tashkil etish
D) masjid-madrasalar faoliyatini yoʻlga qoʻyish

94. XIX asr 70-yillarida Turkiston tarixida sodir boʻlgan voqealarni aniqlang.
1) Avliyootada birinchi rus qishlogʻi paydo boʻldi;
2) Jizzax qoʻzgʻoloni boʻlib oʻtdi;
3) Gandimiyon shartnomasi imzolandi;
4) ilk oʻzbek milliy gazetasi «Taraqqiy» nashr etildi;
5) Mingtepada Yetimxon boshchiligidagi qoʻzgʻolon koʻtarildi; 6) Raim qalʼasi qurildi.
A) 4, 5, 6 B) 1, 2, 3 **C) 1, 3, 5** D) 2, 4, 6

95. Qaysi hudud Rim va Karfagen oʻrtasida urush boshlanishiga sabab boʻlgan?
A) Sardiniya B) Korsika **C) Sitsiliya**
D) Ispaniya

96. Xitoy sulola (davlat) larining hukmronlik davriga koʻra toʻgʻri xronologik ketma-ketlikda berilgan javobni aniqlang.*
1) Sin; 2) Shan; 3) Chjou; 4) Xan; 5) Sya.
A) 5, 1, 4, 2, 3 **B) 5, 2, 3, 1, 4**
C) 3, 2, 5, 1, 4 D) 3, 1, 4, 2, 5

97. Oʻrta asr maktablarida antik davrdan mavjud "yetti erkin sanʼat" deb nomlangan fanlar oʻrgatilgan. Uning tarkibidagi kvadriumda nimalar oʻrgatilgan?
A) arifmetika, grammatika, morfologiya, geometriya
B) geometriya, astronomiya, fizika, arifmetika
C) geometriya, dialektika, grammatika, ritorika
D) arifmetika, geometriya, musiqa, astronomiya

98. Yevropada kitob bosish dastgohi XV asrda, Xitoyda esa ... ixtiro qilingan.
A) XIII asrda B) XIV asrda C) XII asrda
D) XI asrda

99. Yevropada kelgusida roʻy berishi mumkin boʻlgan inqiloblarga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan "Muqaddas ittifoq"qa kirmagan davlatni belgilang.
A) Avstriya B) Rossiya C) Prussiya
D) Buyuk Britaniya

100. 1907-yilda qaysi davlatda rangli metallurgiya sohasida faoliyat olib boruvchi "Med" jamiyati vujudga kelgan?
A) Avstriya-Vengriyada **B) Rossiyada**
C) Italiyada D) Germaniyada



Tarix fanini INNOVATSIYALAR bilan o'rganing!

- Repetitor: **Jalol BOLTAYEV**
- Telefon: **(97) 299 00 66**
- Manzil: **Xorazm viloyati**
- Telegram kanal: **@TESTLIDER**

Telegram kanalimizga a'zo bo'lish uchun quyidagi ko'k yozuvning ustiga bosing!

TESTLIDER

